

OGAHIY IJODIDA FASLLAR TASVIRI: "QISH" VA "NAVRO'Z" G'AZALLARINING BADIY TAHLILI

Pardaboyeva Ruxsora Ibrohim qizi

TDSHU, Sharq xalq tillari va adabiyoti instituti, 1-kurs turk-ingliz guruhi talabasi

Tel:997856807;pardaboyevaruxsora204gmail.com

Nuriddin Altinbayev *TDSHU katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning "Qish" va "Navro'z" g'azallari badiiy tahlil qilinadi. Ushbu asarlarda qish va bahor fasllari tasvirlanib, ular bir-biriga zid olam sifatida talqin etiladi. "Qish" g'azalida qishning sovuq va shiddatli kelishi inson hayotidagi qiyinchiliklar bilan bog'liq tarzda tasvirlangan bo'lsa, "Navro'z" g'azalida bahorning kelishi, quvonch va yangilanish ramzi sifatida madh etiladi. Maqolada tazod, tashbeh, istiora, mubolag'a kabi badiiy san'atlarning qo'llanilishi tizimli ravishda tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Muhammad Rizo Ogahiy, "Qish" g'azali, "Navro'z" g'azali, fasl tasviri, badiiy san'at, tazod, tashbeh, istiora, mubolag'a.*

Sharq mumtoz adabiyotida tabiat manzaralari inson ruhiyati va hayoti bilan bog'liq holda tasvirlangan. Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) ham tabiat hodisalarini nafaqat go'zal tasvir sifatida, balki inson hayoti, his-tuyg'ulari va jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'lab ifodalagan.

Ogahiy Xiva xonligi davrida yashagan va ijod qilgan shoir, tarixnavis hamda tarjimon bo'lib, o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U 19-asr o'zbek she'riyatida g'azal, masnaviy va tarixiy asarlar yaratgan. Uning ijodi tabiat, inson kechinmalari, tarixiy voqealar va jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettirish bilan ajralib turadi.

Shoirning "Qish" va "Navro'z" g'azallari bir-biriga teskari bo'lgan ikki faslni tasvirlaydi. Qish – hayotning murakkab va sovuq pallalarini, bahor esa yangi umid va quvonchni ifodalaydi. Ushbu maqolada har ikkala g'azalda ishlatilgan badiiy san'atlar tizimli ravishda tahlil qilinadi.

BADIY SAN'ATLARNING TAHLILI

1. Tazod san'ati¹

Tazod – arabcha so'z bo'lib, qarshilantirish usulining adabiyotda qo'llangan bir ko'rinishi. Tazodda qarama-qarshi qo'yilgan ikki tomon ayni zamonda bir-biriga uzviy ravishda bog'lanib keladi.

"Qish" g'azalida tazod:

"Qotig'roq kelmadi hargiz jahong'a ushbu qishdin qish,
Ki aql-u hisg'a yaksar mone' o'ldi borchha ishdin qish."

□ Bu baytda qish jismoniy sovuq emas, balki inson aqli va hissiyotiga ham to'sqinlik qiluvchi kuch sifatida tasvirlangan.

□ "Aql va his" – hayotiy faollik ifodasi bo'lsa, "qishning mone' bo'lishi" – hayotning sustlashishini bildiradi.

1. U. Usmonova. *"She'riy san'atlar". Farg'ona-2015.B-12.*

"Navro'z" g'azalida tazod:

"Baland aylab quyoshga poya Navro'z,
Ko'tardi yer yuzidin soya Navro'z."

□ Bahor kelishi bilan yorug'lik ortib, qishning zulmati yo'qoladi.

□ Quyosh – hayot va harorat timsoli, soya – qorong'ilik va sovuq timsoli bo'lib, bahor kelishi bu qarama-qarshilikni hal qiladi.

2. Tashbeh san'ati²

Tashbeh – bir narsani boshqa narsa bilan o'xshatib tasvirlash san'ati.

"Qish" g'azalida tashbeh:

"Burudat shiddati ostida qaddim xam qilib yodek,"

□ Qishning sovuq shiddati insonni "qari chol" kabi bukib qo'ygani tasvirlangan.

"Navro'z" g'azalida tashbeh:

"Tarab tiffin tug'urdi dahr zoli,
Ango bo'ldi magarkim doya Navro'z."

□ Bahor tabiatga hayot baxsh etayotgan ona yoki "doya" sifatida tasvirlangan.

3. Istiora san'ati³

Istiora – tushunchalarni yashirin tashbeh orqali ifodalash san'ati.

"Qish" g'azalida istiora:

"Ushotib sangi shiddatdin ayirdi borcha tishdin qish."

□ Qishning shiddati tosh kabi mustahkam bo'lib, odamning tishlarini sindirgani tasvirlangan.

"Navro'z" g'azalida istiora:

"Kelib fayz-u nishot-u aysh birla,
Muhayyo qildi elga voya Navro'z."

□ Bahor odamlarga quvonch ulashuvchi jonli kuch sifatida tasvirlangan.

4. Mubolag'a san'ati⁴

Mubolag'a – asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatni bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati demakdir.

2. L.Tashmuxeimedova. "Adabiyot tarixi va nazariyasi". 1-qism. Toshkent-2020.B-56

3.G.Rahmatova. "Qadimgi turkiy she'riyatda qo'llangan badiiy san'atlar va ularning matn stilistikasiga ta'siri". Toshkent-2022. B-14

4. A.Xojiahmedov. "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya". Toshkent-1998. B-9

"Qish" g'azalida mubolag'a:

"Mani mahrum qildi el bila borish-kelishdin qish..

□ Qishning shiddati shunchalikki, u odamlarni bir-biri bilan ko'rishishdan ham mahrum qiladi.

"Navro'z" g'azalida mubolag'a:

"Ko'zim yoshig'a toya-toya Navro'z."

□ Shoirning dardi shu qadar kuchliki, hatto bahorning o'zi ham uning ko'z yoshlarini to'xtata olmaydi.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodida tabiat manzaralari inson hayoti, ruhiyati va jamiyatdagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'langan holda tasvirlanadi. "Qish" va "Navro'z" g'azallari shoirning fasllar tasviriga bo'lgan san'atkorona yondashuvini ko'rsatib, hayotning murakkab va yorug' tomonlarini badiiy aks ettiradi.

"Qish" g'azali inson hayotidagi og'ir sinov va qiyinchiliklarni ramziy tasvirlash bilan ajralib turadi. Shoir qishning qattiq izg'irinini, shamollarning dag'alligini va hayotni qiyinlashtiruvchi sovuq ob-havoni inson hayotidagi azob va tashvishlarga qiyoslaydi. Ushbu g'azalda tazod, tashbeh, istiora, mubolag'a kabi san'atlar orqali qish faslining qahraton qiyofasi kuchli badiiy ta'sir bilan ifodalangan.

"Navro'z" g'azali esa aksincha, bahorning kelishi bilan tabiatning uyg'onishi, shodlik va hayotning yangi bosqichi boshlanishi haqida hikoya qiladi. Bahor – tabiat va inson qalbining yangilanishi, umid va muhabbat fasli sifatida tasvirlanadi. Shoir bu faslni hayotning quvonchli va yorug' pallasi sifatida tasvirlab, badiiy san'atlar orqali bahorning ta'sirchan obrazini yaratadi.

Bu ikki g'azalda yorug'lik va qorong'ilik, sovuq va ilqlik, umidsizlik va quvonch o'rtasidagi ziddiyat badiiy mahorat bilan yoritilgan. Ogahiy qish va bahor tasviri orqali inson hayotining og'ir va yengil pallalarini ifodalagan. U tabiat manzaralarini tasvirlash orqali nafaqat fasllarning go'zalligini ko'rsatadi, balki hayotning chuqur falsafiy ma'nolarini ham ochib beradi. Shu sababli, "Qish" va "Navro'z" g'azallari Ogahiy she'riyatining estetik va ma'naviy yuksak namunalaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik / Nashrga tayyorlovchi S. Dolimov. 1–2-jildlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1972.
2. Avazova G. Muhammad Rizo Ogahiy va mumtoz adabiyot. – Toshkent, 2015.
3. Ishoqov Y. Ogahiy ijodi va adabiy merosi. – Toshkent, 1995.
4. Umarova Sh. Ogahiy lirikasi va o'ziga xos xususiyatlari. – Qashqadaryo, 2022.
5. Ubaydullayev A. Ogahiy ijodida fasl tasviri. – Toshkent, 2018.